



Received: April 15, 2025  
Accepted: June 24, 2025  
Available online: June 25, 2025

## **Zumrad Gafarova**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
dotsent  
Osiyo xalqaro universiteti  
Buxoro, O'zbekiston

## **Zumrad Gafarova**

Associate Professor, Doctor of Philosophy in Philo-  
logical Sciences (PhD)  
Asia International University  
Bukhara, Uzbekistan  
E-mail: zumradgafarova8668@gmail.com  
ORCID iD: 0000-0001-5764-6576

### **PARALLEL KORPUSLARNING SHAKLLANISHI VA TARJIMASHUNOSLIKDAGI AHAMIYATI**

### **THE FORMATION OF PARALLEL CORPUSES AND THEIR IMPORTANCE IN TRANSLATION STUDIES**

#### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada parallel korpus shakllanishi jarayoni, ularning lingvistik tuzilishi va tarjimashunoslikdagi o'zni ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi parallel korpuslarning strukturaviy va funksional imkoniyatlarini aniqlash, ularning tarjima jarayonida ahamiyatini aniqlash va tarjima sifatini oshirishdagi ahamiyatini ko'rsatishdir. Shu maqsadda korpus lingvistikasining nazariy asoslari, korpus turlari, moslashish tamoyillari va qo'llanish sohalari ko'rib chiqildi. Tadqiqotning asosiy vazifalari parallel korpus shakllanishi bosqichlarini tizimli tahlil qilish, turli tillardagi manba va maqsadli matnlar o'rtasidagi ekvivalentlikni aniqlash va tarjima jarayonida korpusdan foydalanish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda qiyosiy va tavsiflash usullaridan foydalanilgan. Ingliz va rus, o'zbek tillaridagi matnlar o'rtasidagi semantik, sintaktik va stilistik o'xshashlik va farqlarni tahlil qilishda qiyosiy metoddan foydalanildi. Ta'riflash usuli parallel korpuslar tuzilishi, ma'lumotlar bazasini shakllantirish, tekislash darajasi va qo'llash sohalari haqida batafsil ma'lumot berdi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, parallel korpusdan foydalanish tarjima sifatini oshirish, matnlaro ekvivalentlikni aniqlash va avtomatik tarjima tizimlarini takomillashtirishda samarali vosita hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, parallel korpuslar tarjimashunoslikda ham nazariy, ham amaliy nuqtai nazardan katta ahamiyatga ega bo'lib, tarjimonlar, tilshunolar va sun'iy intellekt tizimlari uchun keng ilmiy va amaliy

#### **ABSTRACT**

This article provides a scientific analysis of the process of formation of parallel corpora, their linguistic structure and role in translation studies. The main purpose of the study is to identify the structural and functional capabilities of parallel corpora, determine their importance in the translation process and show their importance in improving the quality of translation. For this purpose, the theoretical foundations of corpus linguistics, types of corpora, principles of adaptation and areas of application were considered. The main objectives of the study are to systematically analyze the stages of formation of parallel corpora, determine the equivalence between source and target texts in different languages, and determine the possibilities of using the corpus in the translation process. The study used comparative and descriptive methods. The comparative method was used to analyze the semantic, syntactic and stylistic similarities and differences between texts in English, Russian and Uzbek. The descriptive method provided detailed information about the structure of parallel corpora, database formation, level of alignment and areas of application. According to the results of the study, the use of parallel corpora is an effective tool for improving translation quality, determining intertextual equivalence and improving automatic translation systems. In conclusion, parallel corpora are of great importance in translation studies from both theoretical and practical points of view, and provide broad scientific and practical opportunities for translators, linguists and

imkoniyatlarni taqdim etadi.

**Kalit soʻzlar:** parallel korpus, qiyosiy korpus, tarjimashunoslik, korpus lingvistikasi, mashina tarjimasi, til oʻqitish metodikasi, avtomatik tarjima tizimi, ekvivalent.

artificial intelligence systems.

**Key words:** parallel corpus, comparative corpus, translation studies, corpus linguistics, machine translation, language teaching methodology, automatic translation system, equivalent.

## KIRISH

Zamonaviy tilshunoslikda korpus tilshunosligi (KT) mustaqil tadqiqot sohasi sifatida shakllanib, til materiallarini chuqur va tizimli oʻrganishga xizmat qilmoqda. Korpus tilshunosligi — bu ilmiy tadqiqotlar uchun maxsus tanlangan va kompyuterlashtirilgan matnlar toʻplamlarini yaratish, ularni qayta ishlash va ulardan foydalanishga asoslangan fan boʻlib, asosiy maqsad zamonaviy hisoblash texnologiyalari yordamida lingvistik maʼlumotlar korpuslarini qurish hamda ulardan samarali foydalanish tamoyillarini ishlab chiqishdan iborat [Баранов, А.Н., 2003; 15].

Matnlar korpusi (MK) tilshunoslikdagi muhim maʼlumot manbalaridan biri sifatida turli mazmunga ega matnlar yoki ularning maʼlum bir qismlarini oʻz ichiga oladi. Matn korpusi yaratilishi va tarkibi uning yaratuvchisi yoki foydalanuvchisi maqsadlariga qarab shakllanadi. Unda toʻliq asarlar, ularning muayyan boʻlaklari yoki tanlangan tematik namunalarning jamlanishi boʻlishi mumkin. Elektron korpuslar odatda bitta joyda saqlanadigan ixcham tuzilma sifatida yaratiladi, biroq virtual korpuslar ham mavjud boʻlib, ular turli hududlarda joylashgan matnlarni yagona pragmatik maqsad ostida birlashtiradi. Internet rivoji tufayli korpus matnlari dunyoning istalgan qismidan tarmoq orqali ishlashga qulay sharoit yaratmoqda [Сичинава Д.В., 2013].

Parallel korpus (parallel corpora) – bu turli tillarda yaratilgan asl matnlar va ularning tarjimalarini elektron shaklda jamlovchi maʼlumotlar bazasi. Uning tarkibida “original matn + bir yoki bir nechta tarjima” bloklari mavjud boʻlib, ular tilshunoslikda qiyosiy tahlil, tarjimashunoslikda ekvivalent qidirish, mashina tarjimasi va til oʻqitish metodikasida keng qoʻllaniladi. Parallel korpuslar qiyosiy tilshunoslikda, ayniqsa, kontrastiv tahlil va tarjima tadqiqotlarida muhim manba sifatida qadrlanadi. Qiyosiy tadqiqotlarda parallel korpus ikki asosiy vazifani bajaradi: birinchidan, turli tillar oʻrtasida lingvistik birliklarning ekvivalentlik darajasini aniqlash; ikkinchidan, ushbu ekvivalentlarning qoʻllanish chastotasi, semantik diapazoni va stilistik qiymatini tahlil qilish imkoni boʻladi. Bu jarayonda lingvistik universalialarni, tarjima strategiyalarini va tilga xos hodisalarni aniq statistik dalillar bilan asoslash imkoniyati yaratiladi.

Qiyosiy korpus tahlilida ichki subkorpuslar hajmi, mavzu doirasi, xronologiyasi, janri va maʼlumot turi boʻyicha muvofiqlashtirilishi ilmiy natijalarning ishonchliligi uchun zarur. Shu meʼyorlarga rioya etilgan holda, parallel korpus asosida tarjima universalialarini – normallashtirish, oddiylashtirish, eksplisitlashtirish kabi hodisalarni aniqlash va talqin qilish mumkin. Natijalar tarjima jarayonida ekvivalent tanlash, kontekstual moslikni baholash va stilistik barqarorlikni taʼminlash boʻyicha metodik tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tarjima ta'limida korpusdan foydalanishning afzalligi shundaki, u nazariy bilimlarni real amaliy materiallar bilan bevosita bog'laydi, madaniyatlararo muloqotga oid til birliklarining aniq qo'llanishini ko'rsatadi hamda talabada til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni chuqurroq anglash ko'nikmasini shakllantiradi. Zamonaviy ta'lim metodikasida darslik misollari o'rniga korpusdan olingan autentik materiallar qo'llanilishi – ilmiy asoslangan, daliliy va takrorlanadigan o'quv jarayonini ta'minlaydi. Shu tariqa, parallel korpus nafaqat lingvistik tahlil vositasi, balki qiyosiy tadqiqot va tarjima ta'limining samarali resursi sifatida o'z o'rniga ega. Ya'ni ular adabiy, publitsistik, ilmiy, o'quv, biznes, dialektal va boshqa janrlarga oid yozma va og'zaki matnlar asosida tuzilishi, hamda ular mavjud til tizimining real qo'llanishiga xizmat qilishi lozim [Илясов С.А., 2003].

Parallel korpuslarning dastlabki ko'rinishlari XX asrning oxirida tarjima tadqiqotlari va avtomatik tarjima tizimlari rivoji bilan bog'liq holda paydo bo'ldi. Ilk ishlanmalardan biri sifatida Brown Corpus bir tilli bo'lsa-da, keyingi yillarda unga tarjima ekvivalentlari qo'shib, parallel korpus konsepsiyasi shakllandi. 1990-yillarda esa Gale va Church [Gale, William A., and Kenneth W., 1993; 75–102] tomonidan taklif etilgan jumla moslashtirish algoritmlari hamda Melamedning [Melamed, I., 1999; 107–130] bitext map yondashuvi parallel korpuslarni sifatli moslash imkoniyatini yaratdi.

Ilk ko'rinishlar asosan ikki tilli (masalan, ingliz–fransuz, ingliz–nemis) hujjatlar asosida yaratilgan bo'lib, qo'lda tekislash yoki uzunlik asosidagi avtomatik tekislash metodlariga tayangan. Bu davrda parallel korpuslar, asosan, tarjima sifatini nazorat qilish, leksik va grammatik ekvivalentlarni aniqlash hamda tarjima o'quv qo'llanmalarini tayyorlashda qo'llanilgan.

Keyingi ko'rinishlar (2000-yildan boshlab) – ko'p tilli, ko'p domenli, katta hajmli korpuslar, masalan, EUROPARL, OPUS va UN Parallel Corpus kabi ochiq manbalar. Ular nafaqat tarjimashunoslik, balki kompyuter lingvistikasi, mashina tarjimasi, lingvodidaktika sohalarida ham asosiy empirik baza bo'lib xizmat qilmoqda. Korpus sohasida M.Barlowning hissasi katta, u parallel korpuslarni tarjimashunoslik va til o'qitishda qo'llash metodikasini ishlab chiqqan, *ParaConc* dasturini yaratgan [Barlow, Michael., 2002]. T.McEnery esa korpus lingvistikasi metodologiyasining nazariy asoslarini ishlab chiqib, parallel korpuslarni ingliz tilini xorijiy til sifatida o'qitish kontekstida tadqiq qilgan [McEnery, Tony, and Richard Xiao, 2007]. Olima Mona Baker [Baker, Mona, 1993; 233–250] parallel korpuslar yordamida tarjima universalialari (soddalashtirish, eksplikatsiya, standartlashtirish)ni empirik o'rgangan bo'lsa, F.Zanettin tarjima ta'limida parallel korpuslardan foydalanish bo'yicha tajribalarni ishlab chiqqan, talabalar uchun korpus asosida mashq modellarini taklif etgan [Zanettin, Federico, 2001; 239–256]. Arenberg, Blank, Brown kabi olimlar til o'qitishda korpus integratsiyasi, leksik bazalar yaratish va multimodal parallel korpuslar bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Kenneth Church va William Galelar jumla uzunligi asosida tekislash algoritmini ishlab chiqqan, bu metod hozir ham ko'plab korpuslarda qo'llanadi. Gale, Davis, Foster kabi olimlar esa tarjima sifatini statistik asosda baholash va hizalash algoritmlarini takomillashtirish bo'yicha ishlari bilan

tanilgan [Gale, William A., and Kenneth W. Church, 1993; 75–102].

### **TADQIQOT METODLARI**

Ingliz tilidagi korpuslarni ishlab chiqish tajribasi butun dunyo tilshunoslarini o‘z milliy tillari uchun shunga o‘xshash korpuslar yaratishga undadi. Bugungi kunga kelib, jahondagi ko‘pgina yetakchi tillar uchun mashinada o‘qilishi mumkin bo‘lgan matnlar bazasi, ya’ni milliy korpuslar shakllantirilgan. Milliy korpuslar muayyan tilning rivojlanish bosqichini aks ettiruvchi elektron matnlar to‘plami sifatida qaraladi. Bunday korpuslarning asosiy metodologik talabi vakillikdir. Ya’ni ular adabiy, publitsistik, ilmiy, o‘quv, biznes, dialektal va boshqa janrlarga oid yozma va og‘zaki matnlar asosida tuzilishi, hamda ular mavjud til tizimining real qo‘llanishiga mutanosib bo‘lishi lozim [Илупов С.А., 2003].

Ushbu tadqiqot asosan qiyosiy va tavsiflash metodlaridan foydalanilgan. Qiyoslash usuli maqolada turli tillardagi parallel korpusdagi manba va maqsadli matnlar o‘rtasidagi ekvivalentlik, semantik muvofiqlik va tarjima strategiyalarini o‘rganish uchun ishlatilgan. Qiyoslash usuli matnlararo o‘xshashlik va farqlarni aniqlash va tarjima sifati ko‘rsatkichlarini baholash uchun qo‘llanildi.

Tafsiflash usuli orqali esa ushbu tadqiqotda parallel korpuslarning shakllanish bosqichlari, tuzilishi, turlari va qo‘llanilish sohalarining ilmiy tavsifini yoritib berishga va mavjud korpuslarning funksional imkoniyatlari, ularning tarjimashunoslikdagi roli va amaliy ahamiyati tizimli ravishda yoritib berishga harakat qildik. Tadqiqotda qiyosiy va tavsiflash usullaridan foydalanish parallel korpuslarning mohiyatini, ularning tarjimashunoslikdagi ahamiyatini chuqurroq tahlil qilish, nazariy bilimlarni amaliy misollar bilan bog‘lash imkonini berdi.

### **NATIJALAR**

Parallellikka erishish uchun korpus katta hajmga – ko‘pincha millionlab so‘z birliklariga ega bo‘lishi kerak. Milliy korpuslar mazmun va tahliliy murakkablik jihatdan farqlanadi. Britaniya Milliy Korpusi (British National Corpus), masalan, 100 million so‘zdan iborat bo‘lib, uning 90 millioni yozma matnlarga, 10 millioni esa og‘zaki nutqqa tegishli [Crystal D., 1995; 489]. Ushbu korpus boshqa milliy loyihalar uchun metodik namuna bo‘lib xizmat qilgan [Leech G., 1997].

Rus tili uchun yaratilgan parallel korpuslardan biri Finlandiyaning Uppsala universitetida ishlab chiqilgan. Uppsala korpusi taxminan 1 million so‘zdan iborat bo‘lib, 1960–1988 yillarga oid adabiy matnlar va 1985–1988 yillar orasidagi axborot nasrini qamrab olgan [Рыков В.В., 1999; 89-96]. Ushbu turdagi korpuslar, turli tillarda yaratilganidek, tilshunoslarning terminologiyani modellashtirish, mashina tarjimasi tizimlarini takomillashtirish, yoki chet tillarini o‘qitish kabi amaliy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Maxsus vazifalarga xizmat qiluvchi ixtisoslashtirilgan korpuslar ham rivojlanib bormoqda. Bu korpuslar ma’lum bir sohadagi matnlar to‘plamidan tashkil topib, aniq tadqiqot maqsadlariga qaratilgan. Ular, odatda, umumiy til parallellik talablarini bajarmaydi, balki tor yo‘nalishdagi so‘z birikmalari va terminlar asosida tuziladi. Bunday korpuslar bilan ishlashda ikki muhim jihat e’tiborga olinadi: birinchidan, ular cheklangan vakillikka ega bo‘lishi mumkin; ikkinchidan, faqatgina ularning yaratilish

maqsadiga mos holda ishlatilishi lozim [Баранов А.Н., 1998; 179-191].

Yevropadagi korpuslar bo'yicha faoliyatlarni muvofiqlashtirish maqsadida 1992 yilda Yevropa Korpus Tashabbusi (ECI – European Corpus Initiative) tashkil etildi. Bu tashabbus doirasida 40 dan ortiq til uchun 50 ga yaqin korpus yaratilgan bo'lib, ularning hajmi 12 mingdan 5 million so'zgacha bo'lgan. Loyiha ikki asosiy maqsadni ko'zlagan: birinchisi – imkon qadar ko'proq tillar uchun parallel korpuslar ishlab chiqish; ikkinchisi – qiyosiy lingvistik tahlillar uchun parallel korpuslarni yaratish edi.

ECI tashabbusi doirasida yaratilgan eng muhim resurslardan biri bu Kanada parlamentining ikki tilli Hansard korpusidir. Kanadaning rasmiy ikki tilli siyosati (ingliz va fransuz tillari) ushbu korpusda sun'iy tarjima emas, balki tabiiy tarjima ekvivalentlari orqali yaratilgan haqiqiy parallel matnlar mavjudligini kafolatlaydi. Bu korpus tarjimashunoslik va huquqshunoslik tadqiqotlari uchun bebaho manba sifatida qaraladi.

Parallel matnlar korpusini yaratish jarayonida, asosan A.N. Baranov tomonidan ilgari surilgan konsepsiyalarga tayaniladi. Uning fikricha, har qanday matnlar to'plami "korpus" deb atalishi mumkin bo'lsa-da, bu tushuncha faqatgina matnlar to'plamining mavjudligi bilan chegaralanmaydi. Unga qo'yiladigan zarur xususiyatlar mavjud: ularning magnitli (elektron) tashuvchida saqlanishi, matn tanlash tamoyillarining birlashtirilgan bo'lishi, parallel strukturaga ega bo'lishi, yagona va izchil belgilanish tizimi asosida shakllanishi, shuningdek, korpus hajmining aniqligi yoki cheklanganligi hisobga olinadi. Aynan shu omillar, oddiy matnlar majmuasidan ilmiy-tadqiqot uchun foydali bo'lgan korpusni ajratib turadi [Баранов А. Н., 2001].

Elektron shaklda saqlanish korpusni avtomatlashtirilgan qayta ishlash uchun zaruriy shart bo'lib, bu turli xil so'rovlar asosida leksik birliklarni ajratib olish imkonini beradi. Bu esa tilshunoslikda empirik asosda chuqur tahlil qilishga imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga, korpusni tuzishda "birlashtirilgan tanlov" tamoyili muhim rol o'ynaydi. Bu tamoyilga ko'ra, tanlab olingan matnlar aniq bir maqsadga xizmat qilishi va tadqiqot obyekti bo'lgan sohani to'laqonli aks ettirishi kerak. Bunday yondashuv korpus dizaynining mantiqiy va metodik asosda shakllanishini talab etadi.

Mazkur tadqiqotda tuzilgan parallel korpus BMTning bolalar huquqlariga oid asosiy hujjatlari asosida tashkil etilgan. Bular qatoriga 1990-yildagi Convention on the Rights of the Children – "Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya", 1986-yildagi Declaration on Social and Legal Principles relating to the Protection and Welfare of Children, with special reference to Foster Placement and Adoption Nationally and Internationally – "Ijtimoiy-huquqiy tamoyillar to'g'risidagi Deklaratsiya", va 1990-yildagi United Nations Rules for the Protection of Juveniles Deprived of their Liberty – "Ozodlikdan mahrum qilingan voyaga yetmaganlarni himoya qilish bo'yicha qoidalar" kiradi. Ushbu hujjatlar korpus mazmunining yurisprudensiyaga oid bo'lishi va ayniqsa bolalar huquqlari terminologiyasiga e'tibor qaratilganini ko'rsatadi.

Material tiliga ko'ra korpuslar ikki asosiy turga bo'linadi:

1. Bir tilli korpuslar – faqat bitta tildagi matnlarni o'z ichiga oladi (masalan, British National Corpus).

2. Ko‘p tilli korpuslar – ikki yoki undan ortiq tilni qamrab oladi va ikki asosiy ko‘rinishga ega:

a) Parallel yoki tarjima korpusi – bir til matni va uning boshqa til(lar)dagi tarjimasi hizalangan holda beriladi.

b) Qiyosiy korpus – turli tillarda yozilgan, lekin tarjima bo‘lmagan, bir mavzu doirasidagi matnlar jamlanadi.

Parallel korpuslar qanday maqsadni ko‘zlashidan qat’i nazar tarkibidagi birliklar moslashtirilgan bo‘lishi lozim. Moslashtirish yuqorida aytilganidek, bitekst dasturi asosida amalga oshiriladi. Parallel matnlarni to‘g‘rilash– ikkala til (tarjima va asliyat) matnidagi bir-biriga to‘g‘ri keluvchi gap, abzaslarni identifikatsiyalash jarayoni.

Matn qismlarini bunday moslashtirish turlicha bo‘lishi mumkin. Qismlar muallif maqsadiga qarab har xil bo‘ladi: bob, bo‘lim, abzas, gap va b. Foydalanuvchi uchun eng qulay moslashtirilgan shakl asliyat va tarjima matnlarning muvofiqlashtirilishi hisoblanadi. Bu murakkab jarayon, ko‘p kuch talab etiladigan mehnat, shuning uchun bo‘lsa kerak, hozirgacha dunyoda muvofiqlashtirilgan, namunali parallel korpuslar sanoqli. Chunki asliyat va tarjimadagi matn parchalarini moslashtirishning avtomatik usuli ijobiy natija bermaydi. Eng mukammal tarzda ishlangan avtomatik tarjima dasturi ham gaplarning chegarasini aniqlashning aniq yechimini berolmaydi. Asliyatdagi matnda xabar bir/ikki/uch gap bilan ifodalanishi mumkin yoki aksincha. Shuning uchun bitta buyruq bilan asliyat va tarjima matn qismlarini tenglashtirishning imkoni yo‘q. Shunga mo‘ljallangan texnik vositalar mavjud bo‘lishi mumkin, ammo ularning hech biri inson aralashuvisiz muammoni hal etolmaydi. Parallel korpus tarkibidagi matnni gaplar bo‘yicha mosligiga erishish turli lingvistik amallar bajarishga yo‘l ochib beradi. Ma’lumki, tarjima jarayonida asliyat matndagi bitta jumla tarjima matnda ikki jumlagacha bo‘linishi, aksincha, asl matndagi bir necha gap tarjimada bitta gap shaklida berilishi, gaplardagi izchillik yoki tartib almashishi mumkin. Shuning uchun parallel korpus tuzishda eng murakkab jarayon asliyat va tarjima matnni muvofiqlashtirish jarayoni hisoblanadi.

Parallel korpus qiyosiy korpusdan farqlanishi lozim. Parallel korpus — bir til (A)dagi original matn(lar) va u(larning) boshqa til(lar)ga (B, ...) tarjimalaridan iborat bo‘ladi; birliklar odatda gap/abzas darajasida moslashtirilgan (alignment) bo‘ladi. Masalan, Europarl Yevropa Parlamenti majlislarining 11 tilidagi tarjimalari gap darajasida bog‘langan.<sup>1</sup> Qiyosiy (comparable) korpus turli tillarda, bir xil tanlash mezonini (janr, mavzu, davr, uslub, manba) asosida to‘plangan, lekin tarjima munosabatida bo‘lmagan matnlar majmui. Masalan, TenTen oilasi (Sketch Engine) va Leipzig Corpora ko‘p tillarda bir xil usulda yig‘ilgan veb-matnlar. Europarl parallel korpusining MT uchun roli; BUCC (Building and Using Comparable Corpora) materiallari qiyosiy korpuslardan matnlararo o‘xshashlikni chiqarish va ko‘p tilli ishlovda foydalanishni ko‘rsatadi.

Parallel korpusning asosiy belgisi — alignment (gap/abzas darajasi), ko‘pincha

ikki va ko‘p tilli (multiparallel) qatlamlar, tarjima yo‘nalishlari aniq.

Qiyosiy korpusning asosiy belgisi esa subkorpuslar mustaqil yig‘iladi; o‘lcham, manba va tozalash me‘yorlari bir xil bo‘ladi; ko‘pincha parallel bog‘lanish yo‘q. TenTen/Leipzig‘da aynan shu “bir xil format va manbalar” prinsipi qo‘llanadi.

A.A.Kokoreva parallel korpusning o‘ziga xos xususiyatini quyidagicha yoritadi: “Boshqa til korpuslaridan parallel korpusning farqi uning ko‘p tilliligidagi. Uning bu xususiyati til o‘rganuvchida leksik ko‘nikmalar hosil qilishda qo‘l keladi. Parallel korpus vositasida quyidagi imkoniyatlarni inobatga olib talabaga professional leksikani chuqur o‘rgatish mumkin:

- a) korpusda professional yo‘naltirilgan yozma manbalar mavjud;
- b) korpusda asl manba va uning boshqa tilga tarjimasini mavjud;
- c) korpus o‘rganilayotgan tildan ona tiliga, yoki aksincha, ona tilidan o‘rganilayotgan tilga tarjima qilish ko‘nikmasini shakllantiradi;
- d) korpusda ilmiy uslubda yaratiladigan janr namunalari to‘planadi, shu sababdan ilmiy uslubda tarjima qilish ko‘nikmasini parallel korpusdan foydalanish orqali shakllantirish mumkin;
- e) ta’lim jarayoniga illyustrativ korpuslar jalb qilinishi (korpus maqsadiga ko‘ra tadqiqiy yoki illyustrativ bo‘ladi) lozim; chunki o‘qitilayotgan til leksikasini professional o‘rganish uchun sanoqsiz illyustrativ misollarning mavjudligi tadqiq etilayotgan masalaga oydinlik kiritadi;

f) korpusda zamonaviy professional leksika namunalarini uchratish oson.”

Parallel korpuslar ta’lim jarayonida didaktik va metodik funksiyalari orqali samarali ta’limiy resurs sifatida xizmat qilishi mumkin.

Korpusda parallellik mezonlariga ham e’tibor qaratilgan. Bu mezonlar tadqiqot natijalarining umumlashtirilish darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Parallellik faqat matnlarning ko‘pligiga emas, balki ularning muvozanatli janrlar oralig‘ida taqsimlanganligiga va konseptual mazmuniga ham bog‘liq. Korpus hajmi – ingliz tilida 25,473 so‘z va rus tilida 17,925 birlik – bu jihatdan kichik, biroq tahliliy ehtiyojlarni qondirishga yetarlidir. Qiziqarli jihat shundaki, korpusda inglizcha matnlar hajman rus tilidagilardan ustun bo‘lib, bu holat rasmiy hujjat tarjimalarida aksariyat hollarda kuzatiladigan rus tilining kengroq ifoda talab etilishi haqidagi stereotipni qisman inkor etadi. BMT Parallel Korpusi umumiy maqsadli ko‘p tilli lingvistik resurs sifatida xizmat qiladi. U statistik mashina tarjimasini modellarini o‘qitish, til o‘rganish va lingvistik tadqiqotlarni amalga oshirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Bundan tashqari, bu korpus kompyuter lingvistikasi, huquqshunoslik, tarjimashunoslik va xalqaro siyosiy-kommunikativ tadqiqotlar uchun asosiy empirik manba sifatida ishlatilishi mumkin.

Korpus “Bir hujjat – bitta fayl” tamoyili asosida tuzilgan bo‘lib, fayllar TEI (Text Encoding Initiative) formatida saqlangan. Har bir hujjat alohida fayl ko‘rinishida bo‘lib, tarjimalar til juftliklari bo‘yicha bog‘langan. Shu bilan birga, foydalanuvchilar uchun formatlashsiz “bitmatn” to‘plamlari ham taklif etiladi. Bunday variantlar mashina tarjimasini tizimlarini o‘qitish jarayonlarida keng qo‘llaniladi.

Korpusdan foydalanish huquqi ochiq, biroq foydalanish chog‘ida Birlashgan

Millatlar Tashkilotini rasmiy manba sifatida ko'rsatish majburiy sanaladi. Shu bilan birga, korpusdan foydalanish xavflari foydalanuvchining shaxsiy mas'uliyatiga yuklatilgan bo'lib, BMT hech qanday to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita kafolat bermaydi [Ziemski, M., 2016].

## MUNOZARA

Ushbu talablarga rioya qilgan holda, biz belgilangan lingvistik va metodologik vazifalarni hal qilish uchun standart qayta ishlatiladigan korpusni oldik. EAGLES loyihasi [<http://www.ilc.pi.cnr.it/EAGLES96/corpusstyp/corpusstyp.html>] spetsifikatsiyalariga ko'ra, tuzilgan korpus rus va ingliz milliy korpuslarining aralash korpusi hisoblanadi, oldindan belgilangan korpus xususiyatlari va parametrlariga mos keladi va huquqiy konseptual sohaning sublug'atini aks ettiradi [<http://www.ilc.pi.cnr.it/EAGLES96/corpusstyp/corpusstyp.html>].

EAGLES loyihasida taklif etilgan korpus tasnifi asosida, ushbu korpus quyidagi xususiyatlarga ega [[www.ilc.pi.cnr.it/EAGLES96/corpusstyp/corpusstyp.html](http://www.ilc.pi.cnr.it/EAGLES96/corpusstyp/corpusstyp.html)]:

*Mavjudlik shakli bo'yicha:* yozma original matnlardan tashkil topgan;

*Matn turi bo'yicha:* tekshirilayotgan matnlar BMTning rasmiy tillarida yozilgan va teng huquqli BMT hujjatlarini ifodalaydi;

*Hajmi bo'yicha:* kichik subkorpusni tashkil qiladi;

*Til qamrovi bo'yicha:* huquqiy sublug'at korpusiga tegishli; tadqiqotchilar maqsadlariga ko'ra ishonchli kuzatuvlar va xulosalar chiqarish uchun so'z birliklari jihatidan yetarli darajada parallel;

*Janr (registr) bo'yicha:* huquqiy matnlarni o'z ichiga oladi;

*Til variatsiyasi bo'yicha:* parallel tarjima qilingan ikki tilli korpusdir;

*Maqsadli auditoriya bo'yicha:* bolalar huquqlarini himoya qilish va ularga rioya etish masalalari bilan shug'ullanadigan rus va ingliz tillarida so'zlashuvchilar uchun mo'ljallangan;

*Belgilash bo'yicha:* matnlar bir xil darajada original va ekvivalentdir (ya'ni manba va tarjima matnlari farqlanmaydigan mukammal parallel korpusni tashkil qiladi);

*Ochiqlik darajasi bo'yicha:* ushbu subkorpusni doimiy ravishda kengaytirish va to'plash imkoniyatini beradi;

*Milliy variatsiya bo'yicha:* rus va ingliz korpuslarining bir qismini tashkil qiladi, BMTning boshqa rasmiy tillaridagi parallel hujjatlar orqali kengaytirish imkoniyati mavjud;

*Tarixiy variatsiya bo'yicha:* sinxron subkorpusni ifodalaydi;

*Foydalanuvchilar yoshi bo'yicha:* asosan kattalar tushunishi uchun mo'ljallangan rasmiy tillardagi hujjatlarni o'z ichiga oladi;

*Kirish imkoniyati bo'yicha:* ushbu korpus tadqiqot va tarjima maqsadlarida bepul onlayn mavjud bo'lishi rejalashtirilgan.

Shunday qilib, taqdim etilgan korpus ixtisoslashtirilgan tadqiqot korpuslari uchun barcha talablarni qondiradi va terminologik tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Parallel konkordansiyani yaratish va uni elektron hujjatlashtirish (xususan, huquqiy

soha tarjimonining ish stansiyasiga alohida modul sifatida integratsiyalash) huquqiy tarjimonlarga ma'lum domen matnlarida so'z birikmalarining chastota profilini tekshirish bilan birga, maqsadli birliklar bo'yicha kontekstli misollarni avtomatik olish imkonini beradi; natijada termin tanlash va ekvivalentni verifikatsiya qilishga ketadigan vaqt sezilarli qisqaradi. Amaliy jihatdan modul korpusdan top-N konkordans misollarini chaqirib, masalan, "*juvenile probation*" yoki "*youth justice*" uchun ruscha ekvivalentlarning ("*пробация несовершеннолетних*", "*правосудие в отношении несовершеннолетних*") real qo'llanma o'rinlarini tezda ko'rsatadi; shuningdek, nozik farqlanuvchi juftliklar — "*prevention*" ↔ "*предотвращение*" va "*warning/precaution*" ↔ "*предупреждение*", "*adoptive parents*" ↔ "*приёмные родители*" kabi — uchun kollokatsion muhit (old-orqa so'zlar, sintaktik roli) orqali to'g'ri strategiyani tanlashga yordam beradi. Hozircha ingliz-rus parallel matnlarini to'liq avtomatlashtirilgan qayta ishlash vositalari yetishmagani sabab, korpusning ayrim bosqichlari qo'lda bajariladi: avvalo, Korpus-1 (ingliz) va Korpus-2 (rus) matnlari gap darajasida segmentatsiya qilinadi va tekislanadi (2.5.-jadval); so'ng ikki tilli tekislash protsedurasi yordamida gaplararo mosliklar tasdiqlanadi va shu oldindan tekislangan baza keyingi izlash-moslash amallari uchun "moslamalar (alignment) ma'lumotlar bazasi" sifatida xizmat qiladi. Shu tartib, modulga ulanadigan ma'lumotlar bazasida har bir konkordans chizig'i meta-belgilar (manba, sana, hujjat turi) bilan saqlanadi; chaqirish paytida esa foydalanuvchi belgilagan chastota filtrlari va so'z shakli/lemma mezonlari bo'yicha natijalar tartiblanadi. Natijada, tarjimon terminologik barqarorlik (bir domen ichida bir xil ekvivalent), uslubiy izchillik va tezkor qayta tekshirish talablarini bir vaqtning o'zida qondira oladi; aynan shu uchun parallel konkordansiya moduli huquqiy tarjima jarayonida ish unumdorligi va natija sifatini oshiruvchi yadro vosita hisoblanadi.

Bitmatnlar bilan ishlashda o'zaro ma'lumotga asoslangan birgalikda uchrashi (co-occurrence) tahlili eng samarali usullardan biri hisoblanadi: agar 1-tildagi A leksik birligi 1-korpusning muayyan 1, 2, 3-fragmentlarida uchrasa va 2-tildagi B birligi parallel 2-korpusning mos 1, 2, 3-fragmentlarida qayd etilsa,  $A \approx B$  tarjima ekvivalenti haqidagi ishchi gipoteza asosli deb qabul qilinadi. Terminologik tahlil nuqtayi nazaridan, gapni so'z va ibora (multiword unit) darajasida segmentatsiya qilish ingliz tilidagi atamalar hamda barqaror huquqiy shablonlarni aniqlashga, ularning parallel korpusdagi ruscha ekvivalentlarini esa tekislangan fragmentlar kesimida izchil qayd etishga imkon beradi (2.7.-jadval). Shu tarzda qurilgan protokol keyingi bosqichlarda ekvivalentlarni konkordansiya misollari bilan verifikatsiya qilish, zarurat tug'ilganda esa domen lug'atini boyitish va MT (mashina tarjimasi) jarayonida terminlar barqarorligini saqlash uchun tayanch ma'lumotlar bazasini yaratishga xizmat qiladi [Михайлов М.Н., 2002; 182].

Ushbu moslashtirish metodologiyasi turli Markaziy va G'arbiy Yevropa tillari bilan ishlayotgan ko'plab tadqiqotchilar tomonidan qo'llanilgan [Gale W. A, Church K. W., 1991; 40-62]. Masalan, Shvetsiya PLUG loyihasi (Linköping, Uppsala va Göteborgdagi Parallel Korpuslar) doirasida, shved tilini manba yoki target til sifatida o'z ichiga olgan bir qator parallel korpuslarni tuzish maqsadida, tadqiqotchilar shved-

nemis va shved-ingliz parallel matnlarini moslash imkoniyatlarini o'rganishgan.

Huquqiy terminologiya tilning eng barqaror, normativ va yuqori darajada kodifikatsiyalangan qatlamini tashkil etadi. Uning birliklari nafaqat leksik-semantik chegaralariga ega, balki hujjatlarning uslubiy me'yorlari, protsessual talablari va huquqiy tizimning institutsional xususiyatlari bilan ham belgilanadi. Tarjima jarayonida ushbu terminlarni to'g'ri va izchil ekvivalentlar bilan almashtirish uchun kontekstni har tomonlama tahlil qilish talab etiladi. Kontekst bu yerda faqat yaqin atrofdagi gaplar yig'indisi emas, balki matnning janr-uslubiy xususiyatlari, normativ-huquqiy maydon, muayyan institutga xos terminologik an'analar, shuningdek target tilda amal qiladigan kodifikatsiya va standartsizatsiya tamoyillarini o'z ichiga oladi. Shunday ekan, parallel matnlar korpusidan foydalanish tarjimashunos uchun nafaqat empirik material, balki ekvivalent tanlashning mantiqiy-texnologik asosini yaratadi.

Huquq sohasidagi tarjimon ishining tarkibiy qismlaridan biri elektron shakldagi terminologik lug'atlardir. Yoshlar adolati sohasida bunday ixtisoslashtirilgan lug'atlar yaratish uchun material sifatida parallel huquqiy matnlar korpusi, xususan BMTning bolalar huquqlari va farovonligiga oid parallel matnlar korpusidan foydalanish mumkin.

Har bir matn original bo'lgani uchun, tadqiq qilinayotgan korpusda tilga o'rnatilgan va so'zlashuvchilar tomonidan tushuniladigan atamalar va barqaror terminologik birikmalar mavjud degan xulosaga kelish mumkin. Binobarin, bu atamalar standartlashtirilgan, tavsiya etilgan va mustahkam o'rnatilgan hisoblanadi [Беляева Л.Н., 1996; 319]. Bu holat korpus bo'yicha terminologik tadqiqot olib borishda va elektron ma'lumotlar bazasini yaratishda alohida ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ijtimoiy fanlar terminlari va ijtimoiy-siyosiy lug'atni qat'iy ajratish, ayniqsa axborot tillarini ishlab chiqish va axborot-qidiruv tizimlarini yaratish uchun muhimligi hisobga olinadi [Герд А.С., 1996]. Katta hajmdagi bir xil hujjatlar to'plamini tarjima qilishda, ayniqsa ixtisoslashgan huquqiy diskursda, mashina tarjima (MT) tizimlaridan foydalanish terminologik va uslubiy izchillikni saqlash imkonini beradi. Shu sabab, mavjud MT tizimlarining ixtisoslashgan huquqiy matnlarni adekvat tarjima qilish qobiliyatini baholash metodik jihatdan zarur hisoblanadi; bu yondashuv, bir tomondan, korpusdagi terminlarning barqaror qo'llanishini tekshiradi, ikkinchi tomondan, domenga xos xatoliklarni aniqlash va tuzatish imkonini beradi [Koehn Philipp, 2010]. Chastotali lug'atlar tuzish har bir alohida to'plamda so'z va iboralarning qo'llanish naqshlarini aniqlash, ularni o'zaro taqqoslash va ikkala to'plamda ham eng ko'p uchraydigan birliklarni ajratish imkonini beradi; bunday tahlilda yuqori chastotali variantlar va ularning tarjima ekvivalentlarini tanlash muhim metodik bosqich hisoblanadi [Oakes M., 1993; 287].

Tarjimashunoslikda lug'aviy ekvivalent manba tilidagi so'zning nutq qismi, asosiy semantik yadrosi va kombinator imkoniyatlari bo'yicha mos keladigan birlik sifatida izohlanadi. Bunday moslama ko'pincha kontekstga minimal darajada bog'liq bo'lib ko'rinsa-da, huquqiy matnlarda bu tajriba har doim ham samara bermaydi. Aksincha, tarjima ekvivalenti har doim kontekstdan kelib chiqadi: u huquqiy tizimning kategoriyalari, institutsional amaliyot va target tilining normativ xossalari

bilan bog‘langan bo‘ladi. Masalan, ingliz tilidagi “defendant” atamasi fuqarolik ishlarida “javobgar”, jinoyat ishlarida esa “sudlanuvchi” sifatida beriladi. O‘zbek huquqiy korpusida “Sud javobgarning ish bo‘yicha fikrini tingladi” kabi iboralar fuqarolik protsesslari uchun xos bo‘lib, u yerda “defendant”ning mos ekvivalenti aynan “javobgar”dir. Demak, lug‘aviy ekvivalentga tayanish yetarli emas; tarjima ekvivalenti faqat konkret kontekstda aniqlanadi va aynan shu yondashuv tarjimaning aniqligi, izchilligi va normativ muvofiqligini kafolatlaydi [Holmes J.S., 1988; 117].

Parallel korpus bilan ishlash metodologiyasi bosqichma-bosqich jarayon sifatida tasavvur etilishi lozim: avvalo, manba matnlar mazmuniy jihatdan muhim fragmentlarga ajratiladi, so‘ng paragraf va gap darajasida tekislashtiriladi, undan keyin so‘z va ibora darajasida tekislashtirish amalga oshiriladi. Har bir alohida korpus doirasida chastotali va alifbo-chastotali lug‘atlar tuziladi, parallel konkordansiyalar tayyorlanadi, eksperimental mashina tarjimasi o‘tkazilib, natijalar qiyosiy leksik-semantik tahlilda baholanadi. Ushbu mexanizm atamalar va barqaror terminologik birikmalarni aniqlash, ularning tarjima ekvivalentlarini tekshirish, strategiyalarni modellashtirish va tarjima jarayonini optimallashtirish imkonini beradi. Shu tarzda yaratilgan ma‘lumotlar bazasi tarjimon ish stansiyasiga integratsiyalashganda, maqsadli iboralar misollari avtomatik tarzda olinib, huquqiy hujjatlarni tarjima qilishga sarflanadigan vaqt qisqaradi.

Transformatsiya strategiyalarining amaliyotda qo‘llanilishi ko‘pincha kontekstning qat‘iy talablari bilan belgilanadi. Huquqiy matnda ortiqcha bo‘laklarni qisqartirish (nol tarjima yoki leksik kondensatsiya) faqat ma‘no yo‘qotilmasa va normativ aniqlik buzilmasa mumkin bo‘ladi. Shunga mos ravishda, ayrim hollarda aksincha, ma‘lumotni aniqlashtirish uchun leksik qo‘shimcha kiritish yoki eksplikatsiya yo‘liga murojaat qilinadi. Grammatik konversiya esa nutq qismlarini almashtirish orqali ma‘no aloqadorligini mustahkamlaydi; masalan, “administered by qualified personnel” iborasi “malakali xodimlar tomonidan boshqariladi” shaklida beriladi. Maxsuslashtirish va umumlashtirish esa huquqiy janrda o‘ziga xos ko‘rinishga ega: maxsuslashtirish ko‘proq uchrasa-da, umumlashtirish ko‘pincha joiz emas, chunki normativ matn aniqlikni talab qiladi.

Jadval 1.

**Antonimik tarjima usuli yordamida atama ma‘nosini transformatsiya qilish**

Ingliz tili	Rus tili	O‘zbek tili
by means other than institutionalization	не прибегая к помещению в воспитательно-исправительное учреждение	institutsonallashtirish choralaridan foydalanmagan holda
unless it is considered not to be in the best interest of the child	если это не считается противоречащим наилучшим интересам ребенка	agar bu bolaning eng yaxshi manfaatlariga zid deb hisoblanmasa

O‘zbek huquqiy korpusi bilan ishlash shuni ko‘rsatadiki, termin tanlovi ko‘pincha milliy huquq tizimining institut va protseduralarini hisobga olgan holda belgilanadi. Masalan, “child welfare agencies” birikmasining o‘zbekcha muqobili “vasiylik va

homiylilik organlari” bo‘lib, bu atama amaldagi qonunchilikda kodifikatsiyalangan. Xuddi shuningdek, “legal capacity” o‘zbek tilida “huquqiy layoqat” sifatida qat’iy mustahkamlangan. Sud amaliyoti kontekstida “closed session” har doim “yopiq sud majlisi” deb beriladi, chunki bu ibora protsessual rejimning aniq nomlanishidir. Bunday moslamalar korpusdan olingan ko‘p sonli konkordansiyalar asosida statistik tasdiq topadi va tarjimon uchun terminologik ustuvorlikni belgilaydi.

Kontekstning funksional jihatlari ham muhim: masalan, “defendant” atamasi fuqarolik ishlari bo‘yicha “javobgar” va jinoyat ishlari bo‘yicha “sudlanuvchi” sifatida farqlanadi; “plaintiff” esa mos ravishda “da’vogar” tarzida beriladi. “Prosecutor” atamasi “prokuror” bo‘lsa, “clerk of the court” iborasi o‘zbek matnlarida “sud majlisi kotibi” bilan ifodalanadi. Bunday barqaror ekvivalentlar tarjimada *leksik-semantik almashtirish* jarayoni orqali tanlanadi, chunki so‘zma-so‘z lug‘aviy moslik ko‘pincha yetarli bo‘lmaydi.

Keltirilgan strategiyalar bir-biri bilan integratsiyalashgan holda ishlaganda eng yuqori samara beradi. Avvalo, tekislashtirilgan parallel korpus asosida termin nomzodlari ajratib olinadi; so‘ng konkordansiyalar orqali ularning real qo‘llanilishi baholanadi; keyin esa transformatsiya usullaridan mos keladigani tanlanadi. Shu tariqa, tarjima ekvivalentlari tizimli tarzda verifikatsiya qilinadi. Amaliyotda bu yondashuv tarjima vaqtini qisqartiradi, xatolik ehtimolini kamaytiradi va huquqiy hujjatning rasmiy-uslubiy yaxlitligini ta’minlaydi. Bundan tashqari, olingan natijalar ikki tilli lug‘atlar, elektron terminologik ma’lumotnomalar va tarjimon ish stansiyalarining termin-modullarini yangilashda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Huquqiy matnlarda “yo‘qotish” (elimination) strategiyasi faqat ma’no oshiqchaligi yuzaga kelganda va mazmun kontekstdan to‘liq tiklanishi mumkin bo‘lgan hollardagina qo‘llanadi. Masalan, “right to inspect the death certificate, see the body and determine the method of disposal of the body” birikmasi o‘zbek tilida “o‘lim guvohnomasi bilan tanishish, jasadni ko‘rish va dafn etish usulini belgilash huquqi” tarzida ixchamlashtirilishi mumkin. Biroq bunday qisqartirishni odatiy yo‘l sifatida qabul qilib bo‘lmaydi, chunki huquqiy normalarni ifodalash aniqlik va to‘liqlikni talab qiladi.

Shuningdek, “olmoshlar bilan takrorlash” usuli huquqiy matnlar uchun mos emas: normativ hujjatlarda termin va ishtirokchilar nomi qayta-qayta ochiq takrorlanadi. Tekshirilgan korpusda bu usul deyarli uchramagan, faqat “placement of a child outside the care of the child’s own parents” kabi holatda strukturaviy muvofiqlikni ta’minlash uchun qo‘llangan. O‘zbek tilida bu “bolani o‘z ota-onasining g‘amxo‘rligidan olish” tarzida berilishi maqsadga muvofiqdir [Виландеберк А.А., 2005].

Metodik jihatdan, kontekstga asoslangan strategiyalarni qo‘llashda bir nechta tamoyil muhim: birinchidan, ekvivalent tanlovi har doim huquqiy institutning funksional tavsifiga mos bo‘lishi lozim; ikkinchidan, normativ ta’riflar va qonunlarda kodifikatsiyalangan atamalar ustuvor qo‘llanadi; uchinchidan, tarjimada ortiqcha umumlashtirishdan qochish zarur, chunki huquqiy matn aniqlikni talab qiladi; to‘rtinchidan, kerak bo‘lsa, eksplikatsiya va leksik qo‘shimcha orqali mazmun aniq

va tushunarli qilinadi; beshinchidan, grammatik konversiya va leksik-semantik almashtirish ma'no yaxlitligini saqlagan holda qo'llanadi. Ushbu tamoyillar parallel korpusdan olingan real misollar bilan mustahkamlanadi.

## XULOSA

Parallel korpus, bu — original matn va uning tarjima variantlari sintaktik birlik darajasida moslashtirilgan, elektron shaklda tashkil etilgan lingvistik resurs bo'lib, ikki yoki undan ortiq tilda semantik ekvivalentlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Korpusning asosiy vazifasi tarjima tilidagi birliklarning kontekstual qo'llanish imkoniyatlarini kuzatish va tahlil qilishdir. Parallel korpuslar tuzilishiga ko'ra bir yo'nalishli, ikki yo'nalishli va ko'p yo'nalishli bo'lishi mumkin. Bu tasnif korpusning tarjima yo'nalishlari soniga, matn joylashuvi va birliklarni moslashtirish tamoyillariga bog'liq. Shuningdek, parallel korpuslar tarjima tilini o'rganishdan tortib, avtomatik tarjima tizimlarini rivojlantirish, lingvodidaktika va leksikografiya sohalarigacha keng ko'lamli amaliy qo'llanma sifatida ishlatiladi. Parallel korpuslar xorijiy til ta'limida didaktik vosita sifatida samarali qo'llanadi. Ularning ko'p tillilik, kontekst asosidagi qidiruv va til qo'llanish sohasini chegaralash imkoniyati talabaga so'z ma'nosini aniqlash, kontekstda ishlatilishini kuzatish hamda maxsus tarjima ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

Huquqiy terminologiyada kontekstga asoslangan tarjima strategiyalari parallel korpusdan olingan dalillar bilan qo'llab-quvvatlangan metodik yondashuvdir. Bu yondashuv tarjimonni lug'aviy ekvivalent darajasidan yuqori pog'onaga ko'taradi, ya'ni funksional jihatdan mos tarjima ekvivalentini tanlashga undaydi. Korpus tahlilining bosqichlari — fragmentatsiya, tekislashtirish, konkordansiya va eksperimental mashina tarjimasi — yakuniy natijalarning ishonchliligini oshiradi. Natijada huquqiy hujjatlar tarjimasining aniqligi, izchilligi va normativ muvofiqligi ta'minlanadi; ikki tilli lug'atlar va elektron resurslar esa yangi dalillar asosida muntazam yangilanib boradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Баранов, А.Н. Корпусная лингвистика / А.Н. Баранов // Введение в прикладную лингвистику: учебное пособие. — М.: Едиториал УРСС, 2003. — С15. <https://linguistics-online.narod.ru/Sosnina1.pdf>
2. Сичинава Д. В. Поливариантные параллельные тексты в составе НКРЯ // Труды международной конференции «Корпусная лингвистика-2013», СПб., 2013. <http://corpora.narod.ru/article.html>
3. Шаров С. А. К созданию представительного корпуса современного русского языка: [Электрон, ресурс] // Труды Международной конференции «Диалог, 2003», Протвино, 11-16 июня 2003 г. <https://ruscorpora.ru/media/uploads/2022/04/21/r38.pdf>
4. Gale, William A., and Kenneth W. Church. "A Program for Aligning Sentences in Bilingual Corpora." *Computational Linguistics*, vol. 19, no. 1, 1993. — P. 75–102. <https://aclanthology.org/J93-1004.pdf>
5. Melamed, I. Dan. "Bitext Maps and Alignment via Pattern Recognition." *Computational Linguistics*, vol. 25, no. 1, 1999. — P. 107–130. <https://dl.acm.org/doi/10.5555/973215.973218>
6. Barlow, Michael. ParaConc: Concordance Software for Parallel Corpora. Athelstan, 2002. [https://www.researchgate.net/publication/228775742\\_ParaConc\\_Concordance\\_software\\_for\\_multilingual\\_parallel\\_corpora](https://www.researchgate.net/publication/228775742_ParaConc_Concordance_software_for_multilingual_parallel_corpora)

7. McEnery, Tony, and Richard Xiao. *Parallel and Comparable Corpora: A Guide to Using Corpora in Translation Studies*. Routledge, 2007. [https://www.academia.edu/2654874/Parallel\\_and\\_comparable\\_corpora\\_What\\_are\\_they\\_up\\_to](https://www.academia.edu/2654874/Parallel_and_comparable_corpora_What_are_they_up_to)
8. Baker, Mona. "Corpus Linguistics and Translation Studies: Implications and Applications." *Text and Technology*, edited by Mona Baker, Gill Francis, and Elena Tognini-Bonelli, John Benjamins, 1993. – P. 233–250. <https://www.semanticscholar.org/paper/%27Corpus-Linguistics-and-Translation-Studies%3A-and-Baker-Francis/9d2fd5439f3b927a326d854c7bf6b3766a5371df>
9. Zanettin, Federico. "Teaching Translation through Parallel Corpora." *Meta: Translators' Journal*, vol. 46, no. 3, 2001. – P. 239–256. [https://www.researchgate.net/publication/312078025\\_Parallel\\_Corpora\\_and\\_Translation\\_Teaching](https://www.researchgate.net/publication/312078025_Parallel_Corpora_and_Translation_Teaching)
10. Gale, William A., and Kenneth W. Church. "A Program for Aligning Sentences in Bilingual Corpora." *Computational Linguistics*, vol. 19, no. 1, 1993. – P. 75–102. [https://www.researchgate.net/publication/220355307\\_A\\_Program\\_for\\_Aligning\\_Sentences\\_in\\_Bilingual\\_Corpora](https://www.researchgate.net/publication/220355307_A_Program_for_Aligning_Sentences_in_Bilingual_Corpora)
11. Шаров С. А. К созданию представительного корпуса современного русского языка: [Электрон, ресурс] // Труды Международной конференции «Диалог, 2003», Протвино, 11-16 июня 2003 г. <https://dialogue-conf.org/media/2688/sharov.pdf>
12. Crystal D. *The Cambridge Encyclopedia of the English Language*. — Cambridge; New York: Cambridge Univ. Press, 1995. – VII, 489 p. [https://books.google.co.uz/books/about/The\\_Cambridge\\_Encyclopedia\\_of\\_the\\_Englis.html?id=wGUdKQEACAAJ&redir\\_esc=y](https://books.google.co.uz/books/about/The_Cambridge_Encyclopedia_of_the_Englis.html?id=wGUdKQEACAAJ&redir_esc=y)
13. Leech G. A Brief Users' Guide to the Grammatical Tagging of the British National Corpus. 1997: [Электрон, ресурс] [www.hcu.ox.ac.uk/BNC/what/gramtag.html](http://www.hcu.ox.ac.uk/BNC/what/gramtag.html)
14. Рыков В. В. Прагматически ориентированный корпус текстов // Тверской лингвистический меридиан. - Тверь, 1999. - Вып. 3. - С. 89-96. Тоже: [Электронный ресурс] <http://rykov-cl.narod.ru/t.html>
15. Баранов А. Н. Автоматизация лингвистических исследований: Корпус текстов как лингвистическая проблема // Русистика сегодня. – 1998. – №1/2. – С. 179-191. [https://www.academia.edu/9096228/Baranov\\_a\\_n\\_vvedenie\\_v\\_prikladnuyu\\_lingvistiku](https://www.academia.edu/9096228/Baranov_a_n_vvedenie_v_prikladnuyu_lingvistiku)
16. Баранов А. Н. Проблема репрезентативности корпуса текстов: [Электрон, ресурс] // Труды Международной конференции Диалог. – 2001 б. <https://rykov-cl.narod.ru/t32.html?utm>
17. [eprints.lancs.ac.uk/acanthology.orgstatmt.org](http://eprints.lancs.ac.uk/acanthology.orgstatmt.org)
18. Кокорева А.А. Корпус параллельных текстов в обучении иностранному языку. – Вестник ТГУ (Тамбовский государственный университет), выпуск 2 (118), 2013. – С. 57-62. <https://journals.tsutmb.ru/a8/upload/2019-01/057-062%20%D0%9A%D0%BE%D0%BA%D0%BE%D1%80%D0%B5%D0%B2%D0%B0.pdf>
19. Gauch S. A Corpus Analysis Approach for Automatic Query Expansion and Its Extension to Multiple Databases// *ACM Transactions on Information Systems*. – 1999. – Vol. 17. – P. 250-269. <https://sigmod.org/publications/anthology/vol6/tois.htm>
20. Ziemski, M., Junczys-Dowmunt, M., and Pouliquen, B. *The United Nations Parallel Corpus, Language Resources and Evaluation (LREC'16)*, Portorož, Sloveniya, May16, 2016. <https://aclanthology.org/L16-1561/>
21. <http://www.ilc.pi.cnr.it/EAGLES96/corpusyp/corpusyp.html>
22. EAGLES: [Электрон, ресурс] [www.ilc.pi.cnr.it/EAGLES96/corpusyp/corpusyp.html](http://www.ilc.pi.cnr.it/EAGLES96/corpusyp/corpusyp.html)
23. Михайлов М. Н. Черная кошка в темной комнате, Или можно ли автоматизировать поиск переводных эквивалентов в параллельном корпусе текстов? // Алфавит: Филол. сб. / Смолен, гос. пед. ун-т. - Смоленск, 2002. – С. 182. <https://cheloveknauka.com/printsipy-i-metody-garmonizatsii-terminologii-na-osnove-korpora-spetsialnyh-parallelnyh-tekstov>
24. Gale W. A, Church K. W. *Concordances for Parallel Texts* // *Proceedings of the Seventh Annual Conference of the UW Centre for the New OED and Text Research Using Corpora*.

- Oxford, 1991. – P. 40-62. <https://eseminar.dbp.gov.my/dokumen/selari.pdf>
25. Беляева, Л. Н., А. С. Герд, и И. И. Убин. «Автоматизация в лексикографии» Прикладное языкознание. Под ред. А. С. Герда, Санкт-Петербург: Изд-во Санкт-Петербургского университета, 1996. – С.319. <https://rep.herzen.spb.ru/publication/3568>
  26. Герд, А.С., редактор. Прикладное языкознание. Санкт-Петербург: Издательство Санкт-Петербургского университета, 1996. [https://books.google.co.uz/books/about/%D0%9F%D1%80%D0%B8%D0%BA%D0%BB%D0%B0%D0%B4%D0%BD%D0%BE%D0%B5\\_%D1%8F%D0%B7%D1%8B%D0%BA%D0%BE%D0%B7%D0%BD%D0%B0%D0%BD.html?id=\\_cgYAQAIAAJ&redir\\_esc=y](https://books.google.co.uz/books/about/%D0%9F%D1%80%D0%B8%D0%BA%D0%BB%D0%B0%D0%B4%D0%BD%D0%BE%D0%B5_%D1%8F%D0%B7%D1%8B%D0%BA%D0%BE%D0%B7%D0%BD%D0%B0%D0%BD.html?id=_cgYAQAIAAJ&redir_esc=y)
  27. Koehn, Philipp. Statistical Machine Translation. Cambridge University Press, 2010. [https://assets.cambridge.org/97805218/74151/frontmatter/9780521874151\\_frontmatter.pdf](https://assets.cambridge.org/97805218/74151/frontmatter/9780521874151_frontmatter.pdf)
  28. Oakes M. Statistics for Corpus Linguistics. — Edinburgh: Edinburgh Univ. Press, 1993. – XVI, 287 p. <https://coehuman.uodiyala.edu.iq/uploads/Coehuman%20library%20pdf/English%20library%D9%83%D8%AA%D8%A8%20%D8%A7%D9%84%D8%A7%D9%86%D9%83%D9%84%D9%8A%D8%B2%D9%8A/linguistics/statistics.pdf>
  29. Holmes J. S. Translated: Papers on Literary Translation and Translation Studies. – Amsterdam: Rodopi, 1988. – 117 p. [https://books.google.co.uz/books/about/Translated.html?id=f6mTvPXluf4C&redir\\_esc=y](https://books.google.co.uz/books/about/Translated.html?id=f6mTvPXluf4C&redir_esc=y)
  30. Виландеберк А.А. Принципы и методы гармонизации терминологии на основе корпуса специальных параллельных текстов (на материале документов ООН). - Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Санкт Петербург, 2005. [https://new-disser.ru/\\_avtoreferats/01002771726.pdf](https://new-disser.ru/_avtoreferats/01002771726.pdf)

## REFERENCES

1. Баранов, А.Н. Корпусная лингвистика / А.Н. Баранов // Введение в прикладную лингвистику: учебное пособие. — М.: Едиториал УРСС, 2003. – С15. <https://linguistics-online.narod.ru/Sosninal.pdf>
2. Сичинава Д. В. Поливариантные параллельные тексты в составе НКРЯ // Труды международной конференции «Корпусная лингвистика-2013», СПб., 2013. <http://corpora.narod.ru/article.html>
3. Шаров С. А. К созданию представительного корпуса современного русского языка: [Электрон, ресурс] // Труды Международной конференции «Диалог, 2003», Протвино, 11-16 июня 2003 г. <https://ruscorpora.ru/media/uploads/2022/04/21/r38.pdf>
4. Gale, William A., and Kenneth W. Church. "A Program for Aligning Sentences in Bilingual Corpora." Computational Linguistics, vol. 19, no. 1, 1993. – P. 75–102. <https://aclanthology.org/J93-1004.pdf>
5. Melamed, I. Dan. "Bitext Maps and Alignment via Pattern Recognition." Computational Linguistics, vol. 25, no. 1, 1999. – P. 107–130. <https://dl.acm.org/doi/10.5555/973215.973218>
6. Barlow, Michael. ParaConc: Concordance Software for Parallel Corpora. Athelstan, 2002. [https://www.researchgate.net/publication/228775742\\_ParaConc\\_Concordance\\_software\\_for\\_multilingual\\_parallel\\_corpora](https://www.researchgate.net/publication/228775742_ParaConc_Concordance_software_for_multilingual_parallel_corpora)
7. McEnery, Tony, and Richard Xiao. Parallel and Comparable Corpora: A Guide to Using Corpora in Translation Studies. Routledge, 2007. [https://www.academia.edu/2654874/Parallel\\_and\\_comparable\\_corpora\\_What\\_are\\_they\\_up\\_to](https://www.academia.edu/2654874/Parallel_and_comparable_corpora_What_are_they_up_to)
8. Baker, Mona. "Corpus Linguistics and Translation Studies: Implications and Applications." Text and Technology, edited by Mona Baker, Gill Francis, and Elena Tognini-Bonelli, John Benjamins, 1993. – P. 233–250. <https://www.semanticscholar.org/paper/%27Corpus-Linguistics-and-Translation-Studies%3A-and-Baker-Francis/9d2fd5439f3b927a326d854c7bf6b3766a5371df>
9. Zanettin, Federico. "Teaching Translation through Parallel Corpora." Meta: Translators' Journal, vol. 46, no. 3, 2001. – P. 239–256. [https://www.researchgate.net/publication/312078025\\_Parallel\\_Corpora\\_and\\_Translation\\_Teaching](https://www.researchgate.net/publication/312078025_Parallel_Corpora_and_Translation_Teaching)

10. Gale, William A., and Kenneth W. Church. "A Program for Aligning Sentences in Bilingual Corpora." *Computational Linguistics*, vol. 19, no. 1, 1993. – P. 75–102. [https://www.researchgate.net/publication/220355307\\_A\\_Program\\_for\\_Aligning\\_Sentences\\_in\\_Bilingual\\_Corpora](https://www.researchgate.net/publication/220355307_A_Program_for_Aligning_Sentences_in_Bilingual_Corpora)
11. Шаров С. А. К созданию представительного корпуса современного русского языка: [Электрон, ресурс] // Труды Международной конференции «Диалог, 2003», Протвино, 11-16 июня 2003 г. <https://dialogue-conf.org/media/2688/sharov.pdf>
12. Crystal D. *The Cambridge Encyclopedia of the English Language*. — Cambridge; New York: Cambridge Univ. Press, 1995. – VII, 489 p. [https://books.google.co.uz/books/about/The\\_Cambridge\\_Encyclopedia\\_of\\_the\\_Englis.html?id=wGUdKQEACAAJ&redir\\_esc=y](https://books.google.co.uz/books/about/The_Cambridge_Encyclopedia_of_the_Englis.html?id=wGUdKQEACAAJ&redir_esc=y)
13. Leech G. A Brief Users' Guide to the Grammatical Tagging of the British National Corpus. 1997: [Электрон, ресурс] [www.hcu.ox.ac.uk/BNC/what/gramtag.html](http://www.hcu.ox.ac.uk/BNC/what/gramtag.html)
14. Рыков В. В. Прагматически ориентированный корпус текстов // Тверской лингвистический меридиан. - Тверь, 1999. - Вып. 3. - С. 89-96. Тоже: [Электронный ресурс] <http://rykov-cl.narod.ru/t.html>
15. Баранов А. Н. Автоматизация лингвистических исследований: Корпус текстов как лингвистическая проблема // Русистика сегодня. – 1998. – №1/2. – С. 179-191. [https://www.academia.edu/9096228/Baranov\\_a\\_n\\_vvedenie\\_v\\_prikladnuyu\\_lingvistiku](https://www.academia.edu/9096228/Baranov_a_n_vvedenie_v_prikladnuyu_lingvistiku)
16. Баранов А. Н. Проблема репрезентативности корпуса текстов: [Электрон, ресурс] // Труды Международной конференции Диалог. – 2001 б. <https://rykov-cl.narod.ru/t32.html?utm>
17. [eprints.lancs.ac.uk/acanthology.orgstatmt.org](http://eprints.lancs.ac.uk/acanthology.orgstatmt.org)
18. Кокорева А.А. Корпус параллельных текстов в обучении иностранному языку. – Вестник ТГУ (Тамбовский государственный университет), выпуск 2 (118), 2013. – С. 57-62. <https://journals.tsutmb.ru/a8/upload/2019-01/057-062%20%D0%9A%D0%BE%D0%BA%D0%BE%D1%80%D0%B5%D0%B2%D0%B0.pdf>
19. Gauch S. A CoFus Analysis Approach for Automatic Query Expansion and Its Extension to Multiple Databases// *ACM Transactions on Information Systems*. – 1999. – Vol. 17. – P. 250-269. <https://sigmod.org/publications/anthology/vol6/tois.htm>
20. Ziemski, M., Junczys-Dowmunt, M., and Pouliquen, B. *The United Nations Parallel Corpus, Language Resources and Evaluation (LREC'16)*, Portorož, Sloveniya, May16, 2016. <https://aclanthology.org/L16-1561/>
21. <http://www.ilc.pi.cnr.it/EAGLES96/corpus/typ/corpus/typ.html>
22. EAGLES: [Электрон, ресурс] [www.ilc.pi.cnr.it/EAGLES96/cofus/typ/corpus/typ.html](http://www.ilc.pi.cnr.it/EAGLES96/cofus/typ/corpus/typ.html)
23. Михайлов М. Н. Черная кошка в темной комнате, Или можно ли автоматизировать поиск переводных эквивалентов в параллельном корпусе текстов? // Алфавит: Филол. сб. / Смолен, гос. пед. ун-т. - Смоленск, 2002. – С. 182. <https://cheloveknauka.com/printsipy-i-metody-garmonizatsii-terminologii-na-osnove-korpusa-spetsialnyh-parallelnyh-tekstov>
24. Gale W. A, Church K. W. Concordances for Parallel Texts // *Proceedings of the Seventh Annual Conference of the UW Centre for the New OED and Text Research Using Corpora*. – Oxford, 1991. – P. 40-62. <https://eseminar.dbp.gov.my/dokumen/selari.pdf>
25. Беляева, Л. Н., А. С. Герд, и И. И. Убин. «Автоматизация в лексикографии» Прикладное языкознание. Под ред. А. С. Герда, Санкт-Петербург: Изд-во Санкт-Петербургского университета, 1996. – С.319. <https://rep.herzen.spb.ru/publication/3568>
26. Герд, А.С., редактор. Прикладное языкознание. Санкт-Петербург: Издательство Санкт-Петербургского университета, 1996. [https://books.google.co.uz/books/about/%D0%9F%D1%80%D0%B8%D0%BA%D0%BB%D0%B0%D0%B4%D0%BD%D0%BE%D0%B5%D1%8F%D0%B7%D1%8B%D0%BA%D0%BE%D0%B7%D0%BD%D0%B0%D0%BD.html?id=\\_egYAQAIAAJ&redir\\_esc=y](https://books.google.co.uz/books/about/%D0%9F%D1%80%D0%B8%D0%BA%D0%BB%D0%B0%D0%B4%D0%BD%D0%BE%D0%B5%D1%8F%D0%B7%D1%8B%D0%BA%D0%BE%D0%B7%D0%BD%D0%B0%D0%BD.html?id=_egYAQAIAAJ&redir_esc=y)
27. Koehn, Philipp. *Statistical Machine Translation*. Cambridge University Press, 2010. [https://assets.cambridge.org/97805218/74151/frontmatter/9780521874151\\_frontmatter.pdf](https://assets.cambridge.org/97805218/74151/frontmatter/9780521874151_frontmatter.pdf)

28. Oakes M. Statistics for Corpus Linguistics. — Edinburgh: Edinburgh Univ. Press, 1993. — XVI, 287 p. <https://coehuman.uodiyala.edu.iq/uploads/Coehuman%20library%20pdf/English%20library%D9%83%D8%AA%D8%A8%20%D8%A7%D9%84%D8%A7%D9%86%D9%83%D9%84%D9%8A%D8%B2%D9%8A/linguistics/statistics.pdf>
29. Holmes J. S. Translated: Papers on Literary Translation and Translation Studies. — Amsterdam: Rodopi, 1988. — 117 p. [https://books.google.co.uz/books/about/Translated.html?id=f6mTvPXluf4C&redir\\_esc=y](https://books.google.co.uz/books/about/Translated.html?id=f6mTvPXluf4C&redir_esc=y)
30. Виландеберк А.А. Принципы и методы гармонизации терминологии на основе корпуса специальных параллельных текстов (на материале документов ООН). - Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Санкт Петербург, 2005. [https://new-disser.ru/\\_avtoreferats/01002771726.pdf](https://new-disser.ru/_avtoreferats/01002771726.pdf)